



**Илмий – амалий конференция
материаллари**

**ИЛМ - ФАН
ВА
ИННОВАЦИЯ**

Қ а р ш и

психологик омиллар белгилаб олинishi ва шу омиллар асосида ишни ташкил қилиш мақсадга мувофиқдир. Шу тариқа камолотга эришган инсон яхшилик билан ёмонликни фарқини билади, фойда билан зарар ўртасидаги тафовутни, чиройли фазилатларини англайди, ўз фаолиятида ёмон ҳислатлардан холи бўлади.

Адабиёт:

1. И.А. Каримов “Юксак маънавият енгилмас куч”. -Т.: “Маънавият” 2008 йил 83 бет

MA'NAVİY-MA'RIFIY TADBIRLAR – YOSHLARNI UMUMMILLIY QADRIYATLARIMIZGA XOS TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi yo'nalishi
magistranti: Xaitova Y.*

Ilmiy rahbar: dot. N. Oripova

Bugungi kunda O'zbekistonni yuksaltiradigan, dunyoga tanitadigan, iqtidorli, bilimga chanqoq, qobiliyatli yoshlarni izlab topish va ularni umummilliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi.

Prezident I. Karimov 2006-yil 25-avgustda “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida” qabul qilgan Qarorida yoshlarni yuqoridagi sifatlar egasi etib tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni va ahamiyatiga yuqori baho beradi: “Aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar o'rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo'naltirilgan suhbat va uchrashuvlar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish”.¹

Talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishda o'quv mashg'ulotlari yetakchilik qilishi lozim deb qarash noto'g'ridir. Modomiki shunday ekan, talabalarni xalqlar do'stligi, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy ishlar ham kuchli vosita sirasiga kiradi.

Shu maqsadda biz yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishga doir maxsus dastur tuzib chiqdik. Ishlab chiqilgan mazkur dasturning ikkinchi bosqichida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Dasturga ko'ra yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish zarurati quyidagilar:

1. Yer yuzida g'oyaviy-siyosiy kurashlarning avj olayotganligi bois yosh avlod ongini ulardan muhofaza qilish omili sifatida foydalanish uchun;

2. Yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, ajdodlar xotirasiga hurmat, ona tabiatni asrash, mehnatsevarlik kabi umummilliy qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida foydalanish uchun;

3. Yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, ularning dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida;

4. Birdam, ahil, inoq, shijoatli, tashabbuskor mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalash va boshqalar bilan izohlanadi.

Talabalar bilan o'tkaziladigan tadbirlarni o'rganib chiqib, biz ularni quyidagi ikki turga ajratib oldik:

1. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan tadbirlar. Ularga ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya kabi dars shakllarida foydalaniladigan turlari kiradi. Dars mashg'ulotlari davomida monolog, dialog, insenirovka, video va audio yozuvlaridan parchalar keltiriladi. O'z navbatida darsning qiziqarli bo'lishiga olib keladi.

2. Auditoriyadan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlar. Ularga mavzuli kechalar, bahslashuvlar, uchrashuvlar, dam olish kechalari, munozara, konferensiya, teatrlashtirilgan konsert, ommaviy tomosha, sayil, bayram, karnaval, ko'rik-tanlovlar, sayohat, ko'rgazmalar, qiziqarli o'yinlar, sport tadbirlari, badiiy havaskorlik to'garaklari mashg'ulotlari va boshqalar kiradi.

Oliy o'quv yurtida ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish ham o'ziga xos ma'naviy-ma'rifiy tadbir turi hisoblanadi. Bu, avvalo, talabalarda jamiyat, vatan, ta'lim muassasasi oldidagi burchni his etgan holda ixtiyoriy ravishda bajariladigan mehnatdir. Talabalarning ijtimoiy foydali ishlarda faol qatnashishi ularda burch, mas'uliyatni shakllantiradi, o'z-o'ziga va do'stlariga adolatli baho berishni o'rgatadi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi.

Talabalarning ijtimoiy foydali mehnatdagi ishtiroki aynan ularda umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishni nazarda tutmasada, talabalarni qishloq xo'jalik ishlari, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish kabi ijtimoiy foydali ishlarga jalb etish orqali ularda tabiatga ijobiy munosabatni shakllanishiga olib keladi, chunki mazkur ishlarni amalga oshirish ham milliy qadriyatlarimiz sirasiga kiradi.

Demak, yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni va roli yuqori bo'lib, shubhasiz bunday tadbirlar jarayonida yoshlar umummilliy qadriyatlar bilan muntazam tanishib boradilar. Yoshlarda qadriyatlarni o'rganishga nisbatan ishtiyoq kuchayadi, ular Vatan va xalq, tabiat oldidagi burch va mas'uliyatni his eta boshlaydilar.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgust Qarori. / "Xalq so'zi" gazetasi, 2006 yil 26 avgust.

2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. 176 b.

3. Qoraboyev U. O'zbekiston bayramlari. -T.: O'qituvchi, 1991. 186 b.

Ушбу мақола "А-1-173 Ёшларни умуммиллий қадриятларимизга хос тарбиясини шакллантириш технологияси ва методикасини ишлаб чиқиш" мавзусидаги давлат гранти доирасида эълон қилинмоқда.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS DAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi magistranti: Umirov A.

Ilmiy rahbar: p.f.d. Shodiyev R.

Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiyaning uzluksizligini ta'minlash va uni tizim shaklida tashkil etish asosiy masalalardan biridir. Boshlang'ich sinflarda tashkil etiladigan darsdan tashqari mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish bilan ham ta'lim-tarbiya

jarayonining uzviyligiga erishiladi. Darsdan tashqari ta'limiy-tarbiyaviy ishlarning vazifasi faqat bolalarni band qilish emas, balki ancha murakkab, ya'ni ularning darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash, ijobiy axborotlarga nisbatan immunitetni uyg'otishdan iboratdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan darsdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy xususiyati - o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir.

O'quvchi kundalik ishlarining davomi sifatida darsdan tashqari mashg'ulotlarda bevosita suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, ekskursiyalarda ishtirok etadi, qolaversa, bular orqali bilimi va ma'naviy dunyosi boyib boradi. Ayniqsa, ular bugungi kunda o'quvchilarning zararli axborotlarga qarshi turishga, ularda ma'naviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan holda tashkil etiladi. Ma'lumki, har qanday darsdan tashqarida tashkil etiladigan mashg'ulot oldiga turli tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Ularning har biri o'ziga xos belgilar, bir-biridan farq qiluvchi shakllar, vositalar, ijodiy mehnatni talab qiladi. Darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulotlar maktab ixtiyoridagi soatlar hisobida belgilangan bo'lishi lozim. Mana shunday darslar bevosita o'quvchilarda ma'naviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu mashg'ulotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

O'quvchi ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishi kerak:

- o'quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;
- darsda olgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishi;
- aniq maqsad va reja asosida uyushtirilishi;

tadbir orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoatchilik, uyushqoqlik, o'zaro yordam kabi axloqiy sifatlar tarkib topishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari tadbirlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- tadbirni rejalashtirish;
- tadbir yuzasidan o'quvchilarga tushuncha berish;
- tadbirni tashkil qilish jarayonida sinf o'quvchilarining barchasi ishtirok etishini ta'minlash.

70	Салямova Ш., Шодиев Р.Д.	Бошлангич синфларда ўқув материалини гаркиблаштириш ва ўқувчиларда мантикий фикр- лашни ривожлантириш	226
71	Усмонова Д., Файзиев З.	Ўрта таълим муассасалари ўқувчиларида касбий мадания- тини шакллантириш тизимига таъсир этувчи педагогик- психологик омиллари	233
72	Xaitova Y., Oripova N.	Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar – yoshlarni umummilliy qadriyatlarim- izga xos tarbiyasini shakllantirish omili sifatida	236
73	Umirov A. Shodiyev R.	Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi	238
74	Karamova M.	Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi yoshlarning intellektual salohiya- tini rivojlantirish	241
75	Hajilov U., Eshmurodova G.	Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim texnologiyasiga o'rgatish pedago- gik muammo sifatida	244
76	Xo'jayorova N., Djumayeva N.	Modernizatsiyalashgan ta'lim jarayonida shaxs faolligini oshirishning imkoniyatlari	246
77	Жумаева Х., Орипова Н.	Миллий-маънавий тарбия ва маънавий хуружлар	249
78	Хусанов А.	Ёшларда соғлом турмуш маданиятини ривожлантиришга психологик ёндашув	253
79	Холлиева М.	Ижтимоий тармоқларнинг ўқув- чилар маънавий кифасига таъсири	255
80	Boymurodov Z.	Ma'naviyat va ommaviy madaniyat	259